


ITOCHU Corporation hamda Toyo Engineering Corporation kompaniyalari vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi

// 25.10.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/itochu-corporation-hamda-toyo-engineering-corporation-kompan>



Bugun “O’zbekimiyosanoat” AJ boshqaruvi raisining birinchi o’rinbosari Yevgeniy Korjikov boshchiligidagi Yaponiyaning ITOCHU Corporation hamda Toyo Engineering Corporation kompaniyalari vakillari bilan uchrashuv bo’lib o’tdi. Unda tomonlar O’zbekiston kimyo sanoatini rivojlantirish strategiyasi, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish va “yashil” mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni muhokama qildilar.

Shuningdek, muzokarada Toyo Engineering Corporation kompaniyasini litsenziar va texnik hamkor sifatida jalb qilgan holda bir qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, Yaponiyaning moliyaviy institutlari tomonidan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari ko’rib chiqildi.

Ma’lumot uchun: ITOCHU Corporation — shtab-kvartirasi Tokioda joylashgan, yapon savdo uylarining “katta beshligi”ga kiruvchi universal savdo uyi. Kompaniya ichki savdo, import-eksport va to’qimachilik, mashinasozlik, metallar, minerallar, energetika, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, ko’chmas mulk, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari kabi turli tovarlarning tashqi savdosi bilan shug’ullanadi.

Toyo Engineering Corporation — muhandislik, qurilish kompaniyasi bo’lib, asosan neft-gaz va neft-kimyo, gaz-kimyo sanoati bilan shug’ullanadi. 1961-yil tashkil etilganidan buyon kompaniya karbamid ishlab chiqarish texnologiyasi sohasida jahon bozori yetakchilaridan hisoblanadi. Korporatsiya 100 dan ortiq

qurilmalarni loyihalashtirgan va amalga oshirgan.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati